

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Nazarova Nigina Rustamovna

Annotatsiya: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion usullar yordamida bolalarda tabiatga mehr uyg‘otish, atrof-muhitni asrashga bo‘lgan e‘tibor va mas‘uliyatni rivojlantirish mumkin. Ushbu metodlar o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar, eksperimental faoliyatlar va multimedia vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, bolalar, ekologik ong, innovatsion usullar, tabiatni asrash, interaktiv o‘yinlar, multimedia, eksperimental faoliyat, ijodkorlik, atrof-muhit, mas‘uliyat, ta‘lim metodikasi.

Аннотация: формирование экологического сознания у детей дошкольного возраста имеет важное значение. С помощью инновационных методов можно привить детям любовь к природе, развить внимание и ответственность за охрану окружающей среды. Эти методы включают игры, интерактивные занятия, экспериментальную деятельность и использование мультимедийных средств.

Ключевые слова: дошкольный возраст, дети, экологическое сознание, инновационные методы, охрана природы, интерактивные игры, мультимедиа, экспериментальная деятельность, творчество, окружающая среда, ответственность, методика обучения.

Annotation: forming ecological awareness in preschool children is of great importance. Through innovative methods, it is possible to foster a love for nature and develop attention and responsibility towards environmental protection in children. These methods include the use of games, interactive activities, experimental work, and multimedia tools.

Key words: preschool age, children, ecological awareness, innovative methods, nature conservation, interactive games, multimedia, experimental activities, creativity, environment, responsibility, educational methodology.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ekologik ta‘lim va tabiatni asrashning ahamiyati haqida bir necha bor so‘zlagan. O‘z chiqishlarida, ekologik ongni maktabgacha yoshdan shakllantirish, bolalarni atrof-muhitni sevishga o‘rgatish, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalda qo‘llash zarurligini ta‘kidladi. Ekologik ong tushunchasi va uning bolalarda shakllanishi: Ekologik ong, insonning atrof-muhit va tabiiy resurslarga bo‘lgan munosabati va ularni saqlashga bo‘lgan mas‘uliyatini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni rivojlantirish - ularni tabiiy muhitga, o‘simliklar va hayvonot dunyosiga mehr va ehtiyotkorlik bilan yondashishga

o'rgatishni anglatadi. Ekologik ongini shakllantirishning ahamiyati: ekologik ongini shakllantirish bu faqat tabiatni sevishdan iborat emas, balki ekologik muammolarni hal qilishda ham yuksak mas'uliyatni anglashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta'lim metodlarini ham o'rni kattadir. Masalan o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar: maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'lim ko'pincha o'yin va amaliy faoliyatlar orqali o'rgatiladi. Bu yoshdagi bolalar uchun ekologik tushunchalar ko'proq vizual va interaktiv bo'lishi kerak. Misol uchun, bolalar bog'larida o'simliklar ekish, hayvonlar va o'simliklar bilan tanishtirish, chiqindilarni to'g'ri ajratish bo'yicha mashg'ulotlar o'rgatiladi. Tabiatga sayohatlar: bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun sayohatlar o'tkazish, ularni hayvonlar va o'simliklar bilan yaqindan tanishtirish, ekologik muammolar haqida suhbatlar tashkil etish ekologik ongini rivojlantirishda samarali metodlardir. Ijtimoiy loyiha va tadbirlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik mavzularda anjumonlar, ko'rgazmalar va chiqishlar tashkil etish bolalarning ekologik ongini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar xulq-atvorida ekologik madaniyat, ekologik bilimlar, amaliy ko'nikmalar, estetik tajribalar asosida shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bola tirik mavjudotlarga hamdard bo'lishni o'rganishi kerak: jonli mavjudot xafa bo'ladi, uni sevish kerak, hayvonlarga ozor berish mumkin emas, tabiat yaratgan narsalarni yo'q qilishga haqqimiz yo'q. Biz bolalar ongiga o'zimizni o'rab turgan olam, barchamiz yashaydigan ulkan uy kabi tuyg'uni uyg'otishimiz kerak.

Ekologik ta'limning asosiy shakllari:

- To'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyati-Faoliyat bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini tashkil etishning yetakchi shaklidir.
- Ekskursiyalar
- Ekologik bayramlar va hordiq
- Kundalik hayotda bolalarni tabiat bilan tanishtirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim berishning bir necha shakllari mavjuda. Bular: Vizual, amaliy, og'zaki. Vizual usul – yuz marta aytishdan ko'ra, bir marta ko'rsatgan ma'qul, ayniqsa, bolalar va ularning tabiat bilan munosabatlari haqida. Ekologik ta'limda vizual usullar: kuzatishlar, rasmlarni ko'rish, modellarni namoyish qilish, slayd- shou. Amaliy usul – o'yinlar, tajribalar, modellashtirish. Ushbu usullardan foydalanish o'qituvchiga alohida ob'ektlar va tabiat hodisalari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni o'rnatish orqali fikrlarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish, tizimga olgan bilimlarini kiritish imkonini beradi. Og'zaki usul – hikoyalar, badiiy asarlar, suhbatlar, og'zaki usullar bolalarda tabiatga nisbatan emotsional ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ekologik bilimlarni berishda o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonlar to'g'risida o'z fikrlarini aniqlaydilar, birlashtiradilar, ko'rib chiqadilar. Didaktik o'yinlar

bolalarga tabiat obyektlari bilan ishlashga imkon beradi, ularni taqqoslaydi, individual tashqi belgilaridagi o'zgarishlarni qayd etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongini shakllantirish bugungi kunda juda muhim masalalardan biridir. Bolalikdan tabiatga mehr uyg'otish, atrof-muhitni asrashga e'tibor va mas'uliyatni rivojlantirish orqali kelajak avlodlarni ekologik jihatdan bilimdon va mas'uliyatli qilib tarbiyalash mumkin.

Innovatsion usullar mohiyati. Innovatsion metodlar an'anaviy ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlarni olib kiradi. Ushbu usullar orqali bolalarda faollik, ijodkorlik, o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi. Ekologik ongni rivojlantirishda quyidagi innovatsion usullar samarali hisoblanadi:

- Interaktiv o'yinlar: bolalar tabiat hodisalarini o'yin shaklida o'rganib, o'zaro muloqot va tajriba almashish orqali ekologik bilimlarni qabul qilishadi.
- Eksperimental faoliyat: oddiy tajribalar va kuzatishlar yordamida tabiat qonuniyatlari haqida tushunchalar hosil qilinadi. Masalan, o'simliklarning o'sish jarayonini kuzatish, suv tozalash tajribalari.
- Multimedia vositalari: animatsiyalar, video-cliplar, interaktiv dasturlar yordamida darslarni yanada qiziqarli va esda qolarli qilish mumkin.
- Ijodiy faoliyatlar: rasmlar chizish, kollajlar yaratish, tabiatga oid qo'shiqlar, ertaklar so'zlash bolalardagi ekologik ongni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion usullar bolalarda tabiatga mehr uyg'otishda, ekologik muammolarni tushunishda va atrof-muhitni asrash zarurligini anglashda sezilarli yordam beradi. Ular yoshlarga mas'uliyatni singdirib, hayot tarzida ekologik qadriyatlarni mujassamlashtirishga imkon yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongini shakllantirishda innovatsion usullar juda samarali. Ular o'yin, interaktiv o'quv mashg'ulotlari, eksperiment va multimedia imkoniyatlarini birlashtirgan holda ekologik ta'limni yanada samarali qiladi. Shu tariqa bolalar tabiatga nisbatan do'stona munosabatni qabul qilib, atrof-muhitni muhofaza qilishga tayyor bo'lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. D. A. Ibragimov "Ekologik ongni shakllantirishda maktabgacha ta'limning ro'li" — "Fan va ta'lim" 2020.y
2. D. Shamsutdinov. "Ekologik ta'lim va uning metodlari" Tashkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi. 2018.y
3. Khamidovna, R. I. (2022). Methods of Ecological Education in the Process of Familiarizing Preschoolers with the Nature of our Country. EUROPEAN
4. JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 245-249.
5. Rajabova, L. C., & Muxtorova, M. A. Q. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIATDA ODDIY TAJRIBALARNI O'TKAZISHGA O'RGATISH. Scientific progress, 2(7), 1218-1223.